

KONTRAST NUTQ VA FIKRLASHNING KOGNITIV UNIVERSALLIGI SIFATIDA

Eshonova Dilnoza Ma'rif qizi

O'zbekiston milliy universiteti

Lingvistika 2-bosqich magistranti.

E-mail: dilnoza_0770@bk.ru

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. O'rmonova N.M.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kontrast tushunchasining inson va borliq bilan bog'liq kognitiv holat ekanligi tahlil qilingan. Kontrast va oppozitsiya terminlari ma'no jihatdan o'xshash bo'lsada ularning obyekt turli aspektlar orqali o'rganilishi misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : kontrast, antiteza, privativ belgi, gradual tarkib, ekvivalentlik, oppozitsiya.

Аннотация: В этой статье анализируется, является ли концепция контраста когнитивным состоянием, связанным с человеческим разумом и бытием. Хотя термины контраст и оппозиция схожи по значению, их объект исследуется в разных аспектах.

Ключевые слова: контраст, антитеза, привативный признак, градуальное содержание, эквивалентность, оппозиция.

Abstract: This article analyzes whether the concept of contrast is a cognitive state associated with the human mind and being. Although the terms contrast and opposition are similar in meaning, their object is explored in different aspects.

Keywords: contrast, antithesis, privative feature, graded content, equivalence, opposition.

Kontrast tushunchasi jamiyatning barcha sohalarida, insonlarning turmush-tarzida, umuman borliqni o'rab turgan barcha narsada mavjud. Bir-biriga nisbatan qarama-qarshi, o'zaro teskari, ikki xil qutbga tegishli bo'lgan, tuzilish, ma'no jihatdan mutlaqo zid bo'lish tamoyili "kontrast" deyiladi.

Tilshunoslikda kontrast tushunchasi avvalo ma'lum bir nutqda ishtirok etgan, asosan kompozitsion stilistik tuzilma prinsipiga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalari, hamda taqdim qilinayotgan ikki vaziyat, fikrning mantiqiy qarama-qarshiligi tushuniladi. Kontrast (fransuzcha, *conraste* – keskin qarama-qarshi qo'yish) – badiiy adabiyot va san'atning boshqa turlarida tasvirlanayotgan narsa-hodisalarni bir-biriga keskin qarama-qarshi qo'yishga asoslangan san'at turidir. Kontrast tasvirlanayotgan narsani bo'rttirib ko'rsatish imkonini beradigan badiiy usul sifatida qadimdan qo'llanib kelinadi. Bu usul badiiy asarning barcha sathlarida (til, sujet, xarakter va sharoit) namoyon bo'lishi, unda zidlash oshkora yoki pinhona amalga oshirilishi mumkin. Masalan, til sathida "antiteza" (yoki *tazod*) ko'rinishida, sujet sathida bir voqea yoki holatning ikkinchi voqea yoki holatga qarshi qo'yilishidir⁶⁷. Kontrast til va nutqda muntazam ishtirok etadigan "universal" ya'ni barcha vaziyat va holatlar uchun umumiy hodisadir. O'z ta'rifiga ko'ra kontrast yoki keskin qarama-qarshilik mohiyatan ziddiyat, mutlaqo bir-biriga to'g'ri kelmaslik, "opozitsiya" (lotincha "oppositio" – qarama-qarshilik) kabi tushunchalar bilan bog'liq. Kontrast tushunchasining falsafaviy, mantiqiy, lingvistik mazmuni, shuningdek, turli olimlarning ushbu

⁶⁷ Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. // Академнашр. – Т.: 2010. –Б. 143.

toifadagi tushunchalarga bo'lgan nuqtai nazari L.A.Novikov va uning shogirt izdoshlarining antonimiya haqidagi asarlarida batafsil bayon etilgan. Kontrastning falsafaviy ta'rifiga ko'ra, har qanday kategoria o'ziga xos xususiyatga ega va o'ziga xos rivojlanadi, o'ziga xos farqlarga qarama-qarshiliklarga ega bo'ladi, ziddiyatning o'zaro bog'liqligi va birligi sifatida tushuniladi. Shuning uchun kontrastni o'ziga xoslik va o'xshashlikdan ajratilgan holda o'rganib bo'lmaydi. Chunki bu hodisa bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lgan voqea-hodisa, obyektlar orasidagi eng aniq va sezilarli farqni ko'rsatib turadi. N.S.Turbentskiyning izlanishlari natijasida kontrastning fanda semantik farqlovchi jihatidan uch turga ajratish taklif qilingan: privativ (xususiy) ya'ni a'zolari bir-biridan farq qiluvchi belgining mavjudligi; gradual (darajaviy) tarkib a'zolaridagi bir xil belgilarining turli darajada namoyon bo'lishi; ekvivalentlik tarkib a'zolaridagi bir xil belgilarning mantiqiy turlichaligi. Matndagi privativ, ekvivalent va dizyunktiv oppozitsiyalar kontrastni namoyon qiladi⁶⁸. Kontrast o'z ona tilida so'zlashuvchilarning ongida til ko'nikmasini hosil qilishda va ongda tildan foydalanishga bo'lgan qobiliyatning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Psixolog Klapared qiziqarli o'yinlar orqali bolalarda o'xshashlikni anglash farqni anglashdan ko'ra kechroq paydo bo'lishini ko'rsatgan⁶⁹. Keyinchalik shaxsning lisoniy rivojlanishi davomida o'xshashlik va farqni (shu jumladan o'ziga xoslik va kontrastni ham) anglash qobiliyati doimiy bog'liq bo'la boshlaydi. Ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolaning fikrlash tuzilmasida so'zlarning analog bo'yicha bo'lishli va bo'lishsiz juftliklar mavjud bo'ladi. Bunday og'zaki juftliklar nafaqat so'zlar orqali balki tovush juftliklarining talaffuzi orqali ham yetkazilishi mumkin⁷⁰. Demak inson ilk rivojlanish jarayonlaridanoq uni o'rab turgan koinot o'zaro muvofiqlik ya'ni o'xshashlik va qarama-qarshiliklardan iborat ekanligini tafakkuri va ongi orqali anglay boshlaydi. Bunday madaniy elementlarning mavjudligi insoniyatning umumiy tafakkuri haqida ma'lumot beradi.⁷¹ Binobarin, borliqning o'zi muvofiqlik va kontrastlardan tuzilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'plab olimlar bilimning turli sohalarida kontrastning bilish, idrok, fikrlash, hotira jarayoni mehanizmida muhim ro'l o'ynashini ta'kidlaydilar. XIX-asrning boshlaridayoq A.Ben "ruhimizning asosiy hususiyatlaridan biri shundaki, u taassurotlarning almashinuvidan ta'sirlanish qobiliyatiga ega, jumladan, issiqdan sovuqqa o'tish, ochlikdan to'qlikka o'tish ta'siri kabi. Bu jarayon muntazam ravishda idrok va his-tuyg'u sohasiga tegishlidir⁷²."

Psixologik kuzatuvlar, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki inson kontrast tushunchasini ruhan, jismonan, aqlan idrok etadi. Demak, insonning barcha harakatiga, yurish-turishiga monanand o'xshashlik va kontrast doimo parallel holatda bo'ladi.

Kontrast orqali sintagmatik yoki ketma-ketlik munosabati (B.D.Kurtene), qo'shnilik munosabati (N.V.Krushevskiy), yoki bir-birini ta'qib qilib keladigan birliklar aniqlanadi. Dixotomik va tilning asosiy ikkiga ya'ni leksik va grammatik jihatlariga bo'linganligi, shuningdek ularning funksiyalariga bog'liqligini R.O.Yakobson "selektsiya" va "kombinatsiya" deb nomlaydi. Ba'zi tilshunoslar paradigmatic va sintagmatik qarama-qarshilik munosabatlarini *kontrast* deb nomlaydilar, ba'zilari esa oppozitsiya tizimidagi ziddiyat va nutq zanjiri birliklari

⁶⁸ Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. –К.: 2003. – С. 26.

⁶⁹ Выготский Л.С. Собр. Соч.: В 6-ти т. Т.2. Проблемы общей психологии. – М.: 1982. – С.208.

⁷⁰ Пузырёв А.В. Анаграммы как явление языка: Опыт системного осмысления. – М.:1995. – С. 52.

⁷¹ Kurbonova G.S "Comparative analysis of phrase logical fusions in the french and uzbek languages." ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11.2 (2021): 1455-1459. –P. 1305

⁷² Бэн А. Стилистика и теория устной и письменной речи. // пер. М.Грузинский, К.Т.Солдатенкова. –М.: 1886. – С.32.

o'tasidagi munosabat sifatida ajratadilar⁷³. Shunday qilib, kontrast bu – til birliklarining semiologik jihatdan qarama-qarshiligidir. Til egalarining lingvokreativ ongida “o'xshashlik” va “farq” bir ko'rsatkichda teng turadi. O'xshashlik – ongda qayd etilgan (bayonot, sintagma, matn) va so'z bilan ko'rsatilgan fon bo'lib, aynan o'xshashlik tamoyili orqali idrok qilinayotgan obyektning farqlari ajratiladi.

Ba'zida, oppozitsiya va kontrast tushunchalari ma'no anglatishiga ko'ra bir xil bo'lganligi tufayli terminlarni ishlatilish o'rinlarida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ammo har ikkisi bir ma'no anglatmada, turli obyektlar orasidagi farqni ko'rsatishda turli aspektlarga yondashadi, hamda, turli tushuncha va g'oyalarni tahlil qiladi. Quyida kontrast va oppozitsiyaning o'ziga xos funksiyalarini tahlil qilamiz.

Kontrast, odatda bir va undan ortiq elementlarning aniq farqini ko'rsatadi. U orqali farq va o'xshashlik ko'rinadi. Kontrast ranglarga, xarakterlarga yoki boshqa bir atributlarga tegishli qarama-qarshilik holatini ko'rsatishi mumkin. Masalan, qora va oq singari ranglar orasidagi farq va ziddiyat, katta va kichik orasidagi ziddiyat va farq, yoki og'ir-bosiq va shaddod orasidagi qarama-qarshilik va farq kabi.

Oppozitsiya esa to'g'ridan-to'g'ri qarshilantirish yoki qarshilik holatidir. Bu vaziyatda obyektlar bir-biriga nisbatan kuch yoki g'oyaviy jihatdan qarshi turishi anglashiladi. Oppozitsiya ko'pincha nigoh, maqsad, fikr yoki xarakteristikani o'z ichiga oladi. Masalan yaxshi va yomon o'rtasidagi oppozitsiya, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat orasidagi oppozitsiyalar kabi.

Shunday qilib insonning o'zi, uni o'rab turgan borliq o'xshashlik va kontrastlardan iborat bo'lib, har ikki tushuncha idrok va olam atrofida aylanadi. Demak, kontrast mavjud ekan o'xshashlik ham mavjud, ular uzviy bog'liqlikda biri-birini to'ldiradi, va biri ikkinchisini doim ko'rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Kurbonova G.S "Comparative analysis of phrase logical fusions in the french and uzbek languages." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1455-1459. –P. 1305
2. Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. // Академнашр. – Т.: 2010. –Б. 143.
3. Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. –К.: 2003. – С. 26., 34.
4. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
5. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001-3007.
6. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
7. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.

⁷³ Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. –К.: 2003. – С. 34.

8. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
9. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
10. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
11. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
16. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
17. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
18. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
19. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023)
20. Бэн А. Стилистика и теория устной и письменной речи. // пер. М.Грузинский, К.Т.Солдатенкова. –М.: 1886. – С.32.
21. Выготский Л.С. Собр. Соч.: В 6-ти т. Т.2. Проблемы общей психологии. – М.: 1982. – С.208.
22. Пузырёв А.В. Анаграммы как явление языка: Опыт системного осмысления. – М.:1995. – С. 52.